



OILAVIY MUNOSABATLARNING TA'LIM MUHITIDAGI INTELLEKTUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Bozaraliyeva Sarvinozxon Mirodil qizi

CHDPU M-PSI talabasi

Muxamedova Dilbar Gafirjanovna

O`zMU Psixologiya kafedrası mudiri, professor

Annatatsiya: Ushbu maqolada oilaviy munosabatlarning bugungi kundagi dolzarb masalalari ta'lim muhiti bilan uzviy bog'liq xolda farzand tarbiyasiga alohida e'tibor qaratishga urg'u berilishi nazarda tutilgan. Oilaning jamiyatdagi o'rni, komil shaxs kamolotida oila, maktab va mahallaning hamkorlikda ishlashining ijobiy ta'siri haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Oila, jamiyat, mahalla instituti, ota-onalar instituti, ta'lim muhiti, iqtidorli yoshlar, emotsiya, intellekt, oila turlari, farzand tarbiyasi, ta'lim bosqichlari.

Annotation: In this article, it is intended to emphasize the importance of paying special attention to the upbringing of children, as the current issues of family relations are inextricably linked with the educational environment. Information about the positive effect is given.

Key words: Family, society, neighborhood institution, parents' institution, educational environment, gifted youth, emotion, intellect, family types, child rearing, educational stages.



Аннотация: В данной статье призвана подчеркнуть важность уделения особого внимания воспитанию детей, так как актуальные вопросы семейных отношений неразрывно связаны с образовательной средой.

Ключевые слова: Семья, общество, институт соседства, институт родителей, образовательная среда, одаренная молодежь, эмоция, интеллект, типы семьи, воспитание детей, этапы образования.

Kirish. Bugungi kunda jahon hamjamiyatining globallashuv davrida oilaviy munosabatlar jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutmoqda. Xorijiy tadqiqotlar jarayoni shuni ko'rsatadiki psixologik muhitning barqarorlashishi oilaviy munosabatlarning ijobiy tomon-ga o'zgarishini taqazo etadi. Shu jumladan olib aytganda jonajon vatanimiz O'zbekiston mustaqillik davriga erishgandan buyon oilaviy muhit, farzand tarbiyasi va uning kamoloti jamiyatimiz oldida turgan eng ustuvor vazifalardan sanaladi. Darhaqiqat oila jamiyatning asosiy bog'inidir. Oila ham vatan ichra kichik vatandir. Oila haqida bugungi kungacha juda ko'plab fikr-mulohazalar, baxs-munozara-lar olib borilgan. Muqaddas kitoblarimizda ham oilaning jamiyat oldidagi o'rni, komil farzand tarbiyasidagi ahamiyati aytib o'tilgani hech kimga sir emas.

Oila haqida so'z borar ekan avvalambor oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimiz asosida tashkil etilgan jamiyatning muhim tarkibiy qismidir. Oila qon-qarindoshlik, qarindoshchilik (nikoh orqali) yoki birga istiqomat qilish orqali bog'langan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdir. Ko'p jamiyatlarda oila bolalar ijtimoiy-lashuvi uchun asosiy institut vazifasini o'taydi. Avloddan avlodga bugungi kungacha yetib kelgan oila haqida juda ko'plab maqollar, ibratli so'zlar, o'gitlar bor.

Jumladan “Qush inida ko'rganini qiladi” ushbu maqolda ham juda chuqur ma'no yashiringan. Inson tug'ilgandan boshlab ota-onasi, oila a'zolari qurshovida voyaga yetadi va kamol topadi. Bola bu yorug' olamni o'z ota-onasi, oila a'zolari va yaqinlari ko'zi bilan



taniy boshlaydi. Dunyoni ota-ona nigohi orqali anglaydi. Bu yerda shunday savol paydo bo'la boshlashi mumkin, asli ota-ona nechog'lik ilmi, qanchalik yetuk shaxs, bu oppoq qog'ozga nimani yoza oladi, qanday tarbiya berishi mumkin? Javob ham bitta faqatgina o'zida borini yetkazadi. Farzand olamni ota-onasi anglatganchalik tushunadi va ota-ona farzand uchun birinchi ustoz bo'ladi. Bu yerda achinarli holat ham bor albatta, ho'sh bu insonlar ilmi, ziyoli, yetarlicha tarbiya topmagan insonlar bo'lgandachi? Bugungi kunda bunday holatlarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Achinarlisi farzand ota-onani hamisha haq deb biladi va ular ko'rsatgan yo'lda davom etadi. Aslida ota-onalar ham o'zlarida xatolar bor ekanligini o'ylab ham ko'rishmaydi chunki ular ham bir paytlar oppoq qog'oz bo'lgan, ularni ham o'z ota-ona va yaqinlari shunday tarbiyalashgan. To'g'ri hozirgi kunda hamma insonlar ham bunday emas albatta.

O'zining shaxsiy fikriga ega, dunyoqarashi keng, ilmi, ziyoli insonlar ham talaygina. Bunday insonlar bor ekan jamiyat gullab yashnayveradi. Bugungi kunda zamonaviy oilalar soni ham ortib bormoqda. Biz buni yosh oilalar misolida ko'rishimiz mumkin. Zamonaviy yosh oilalar har taraflama zamon bilan peshqadam bo'lgan, jamiyatda o'z o'rniga ega hamda ma'naviy-psixologik sog'lom muhitda tarbiya topgan, faravon turmush sharoitiga ega, jismonan sog'lom bo'lgan ayol va erkak-dan qonuniy nikoh asosida barpo etiladi. Bunday sog'lom fikrli yosh oilalar farzandlarini ham milliy qadriyatlar asosida tarbiyalaydi. Shu bilan birga zamonaviy oilalarda albatta bobo va buvi bo'lishi ham mumkin. Biz bunday oilalarni to'kis zamonaviy oila deb bimalol ayta olamiz.

Umuman olganda oilalarda bobo va buvilarning ham o'rni ahamiyatli ular bor ekan oilalar vatanparvarlik tuyg'usida mehr-oqibatli, sabr-qanoatli, o'zaro ahillikda, hamjihat bo'lib yashaydilar. Bugungi kundagi tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki zamonaviy oilalarda farzandlar soni ham ahamiyatga ega ekan. Yani zamonaviy oilardagi farzandlar soni 3 nafardan kam bo'lmasligi lozim. Shunday qilib oila, mahalla va maktab tizimi birgalikda, hamkorlikda faoliyat olib borishi kerak. Farzandlarimizning komil inson bo'lib shakillanishida uning tarbiyasi va ta'limida bu uch sistemaning alohida o'rni bor. Asosiy



tarbiya o'chog'i esa oila va maktab hisoblanadi. Bu juda murakkab va ma'sulyatli jarayondir. Bugungi kunda ta'lim tizimining muvaffaqiyati nafaqat o'quvchi va o'qituvchining o'zaro munosabatlariga, balki oila bilan ta'lim muhitining o'zaro aloqasiga ham bevosita bog'liq. Oilaviy muhit bolalarning intellektual va psixologik rivojlanishida asosiy omil sifatida ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada oilaviy munosabatlarning ta'lim muhitidagi intellektual-psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Oilaviy muhit va uning ta'limga ta'siri:

Oilaviy muhit bolalarning rivojlanishida fundamental ahamiyatga ega. Ota-ona va farzand o'rtasidagi hissiy va psixologik munosabatlar bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini shakllantirishda, ular uchun qulay ta'lim muhitini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, oilaviy muhitda:

- 1. Muloqot darajasi** – ota-onalar va farzandlar o'rtasida ochiq va samimiy muloqot bolalarning ta'limdagi muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir qiladi.
- 2. Oiladagi psixologik iqlim** – mehribonlik, hurmat va bir-birini qo'llab-quvvatlash bolalarning ta'limdagi qiziqishini oshiradi.
- 3. Motivatsiya shakllantirish** – ota-onalarning ta'limga bo'lgan e'tibori va bolalarga qo'yiladigan real talablar intellektual rivojlanishni jadallashtiradi.

Intellektual xususiyatlarning oilaviy ta'siri:

Bolalarning intellektual rivojlanishi ko'pincha oilada shakllangan ma'naviy-madaniy qadriyatlarga bog'liq. Oiladagi kitobxonlik muhitining mavjudligi, ilmiy va madaniy suhbatlarning olib borilishi bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ota-onalarning ta'lim darajasi va kasbiy faoliyati ham bolalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantiruvchi omillardandir.

Psixologik xususiyatlarning ta'limdagi ahamiyati:



Psixologik barqarorlik oilaviy muhitdagi hissiy munosabatlarga bog'liq. Quyidagilar bolalarning psixologik xususiyatlariga ta'sir qiluvchi omillar sifatida ko'rib chiqilishi mumkin:

Qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish – bolalarning muvaffaqiyatlarini qadrlash va kichik g'alabalarini nishonlash ularning ta'limga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi.

Stressni boshqarish ko'nikmalari – oilada ijobiy munosabatlarni shakllantirish bolalarning stressga chidamliligini oshiradi, bu esa ta'lim muhitida muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir.

Hissiy barqarorlik – ota-onalarning bolalarga bo'lgan ishonchi va hissiy qo'llab-quvvatlashi ularning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Oilaviy va ta'lim muhitining hamkorligi:

Oilaviy munosabatlar va ta'lim muhitining o'zaro uyg'unligi bolalarning intellektual va psixologik rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Quyidagi jihatlar muhimdir:

- 1. Maktab va oila hamkorligi** – ota-onalarning maktab faoliyatida faol ishtirok etishi, o'qituvchilar bilan samarali aloqalar o'rnatishi.
- 2. Farzandlarga vaqt ajratish** – ota-onalar bolalarning ta'lim jarayonlariga qiziqish bildirishi va ularni qo'llab-quvvatlashi.
- 3. Ijtimoiy-ko'nikma rivoji** – oilada shakllangan ijtimoiy qadriyatlar va odob-axloq normalari bolalarning jamiyatdagi munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishida muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga har bir alohida dunyo alohida olamdir. Bolalarning temperamenti, yoshi, jinsi, qiziqishlari ham turli xil bo'lishi mumkin. Bularni inobatga olgan holatda maktab o'qituvchilari, maktab psixologi va maktab rahbarlari avvalo o'zlari yetarli tajribaga ega, o'z kasbining mutaxasisi bo'lishi talab etiladi. Maktab muhitida ham oilada ham avvalo bolalarni kuzatib borish ular bilan do'st bo'lish orqali bola bilan yaqin aloqa va ishonch o'rnatish mumkin.



Farzand uchun ishonch va har qanday holatda uni tushunish, ota-ona va yaqinlar tarafidan qo'llab quvvatlash muhim hisoblanadi. Maktab o'quvchilari turli xil oiladan ya'ni ham, moddiy ham ma'naviy jihatdan bir biridan farqli muhitdan kelgan bo'lishi mumkin. Kimnidur oilaviy muhiti sog'lom kimnidur oilaviy muhiti nosog'lom bo'lishi mumkin. Shu boisdan bolalarning psixikasi ham o'zgachadir. Maktabdagi o'qituvchilar bularning barchasini inobatga olgan holda muomalada bo'lishi va bolalarning tengqurlari tomonidan kamsitilishiga yo'l qo'ymasligi hamda do'stona muhitning shakillanishiga imkon yaratib berishi lozim.

Xulosa qilib aytganda oilaviy munosabatlarning ta'lim muhitidagi intellektual-psixologik xususiyatlari haqida umumlashma chiqaradigan bo'lsak, bu munosabatlar nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligiga, balki shaxsning har tomonlama rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi ijobiy muhit, mehr va o'zaro hurmat o'quvchining aqliy salohiyati va ijodiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Aksincha, ziddiyatli va befarq munosabatlar bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishi va intellektual o'sishini cheklashi mumkin. Shuningdek, ta'lim muhitidagi psixologik omillar, masalan, o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik, bolaning ta'limga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

O'quvchining oilaviy sharoitda o'ziga bo'lgan ishonchi mustahkamlanganida, u bilim olishda faolroq bo'ladi. Oilaviy munosabatlar va ta'lim muhiti o'rtasidagi intellektual-psixologik bog'liqlikni chuqur o'rganish, bu ikki muhitni uyg'unlashtirish orqali yosh avlodning salohiyatini to'laqonli rivojlantirishga erishish mumkin. Shu sababli, oilada va maktabda ijobiy psixologik muhit yaratish hamda o'zaro hamkorlikni mustahkamlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. bugungi kunda oilaviy munosabatlarning o'zaro hamkorligi ta'lim muhitida eng asosiy o'rinni egallaydi. Jamiyatda o'z o'rniga ega, sog'lom fikrli, komil farzandni shakllantirishda oila, maktab va mahallaning ahamiyati kattadir. Bu jarayonda oqsoqlik bo'lishi kerak emas. Har bir jarayon bir biri bilan uzviy bog'liqdir. Shunday qilib farzand tarbiyasida ota-onalik ma'suliyatiga alohida urg'u berishimiz lozim. Kelajak avlodning yuksak ma'naviyatli



bo'lishi ijtimoiy muhitning ta'siri alohidadir. Oilaviy munosabatlar ta'lim muhitida bolalarning intellektual va psixologik rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar tomonidan farzandlarning ta'lim jarayoniga faol ishtirok etishlari va ularga qulay psixologik sharoit yaratish nafaqat o'quv natijalarini yaxshilaydi, balki ularning shaxs sifatida kamol topishiga ham yordam beradi. Shu bois, ta'lim va oilaviy muhitning uyg'unligi bo'yicha izlanishlar davom ettirilishi va bu borada ota-onalar uchun maxsus tavsiyalar ishlab chiqilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Асқарова, М. Қ. (2018). Оилада тарбия ва унинг психологияси. Тошкент: Фан.
2. Абдуллаева, Д. (2020). Болалар психологияси ва унинг таълим жараёнига таъсири. Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси.
3. Назаров, Қ. (2019). Оилавий муносабатларнинг ижтимоий-психологик асослари. Тошкент: Ўқитувчи.
4. Виготский, Л. С. (1982). Оқитиш жараёнида боланинг ривожланиши. Москва: Просвещение.
5. Тўраев, Ш. Ҳ. (2017). Таълим жараёнида оила ва мактаб ҳамкорлиги. Тошкент: Фан ва технологиялар.
6. Маслоу, А. (1999). Мотивация ва шахсият. Москва: Рефл-бук.
7. Юнусова, Р. (2021). Мактаб ва оила: Тарбиянинг психологик жиҳатлари. Самарқанд: Нурли илм.
8. Гарднер, Х. (2006). Интелектнинг кўп хиллиги назарияси. Москва: Альпина Паблишер.
9. Баҳромов, Ф. (2020). Ёш авлод таълим-тарбиясида оиланинг ўрни. Тошкент: Янги аср авлоди.
10. Эргашев, А. (2015). Оилани ташкил этишдаги психология. Тошкент: Шарқ.